

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| T.S.Axmedova | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati | 214 |
| Z.O.Qosimoy | |
| Oliy tibbiy ta'lim talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari..... | 218 |
| M.A.Usmanov | |
| Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli..... | 222 |
| A.A.Minavarov | |
| Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli .. | 228 |
| G.K.Usmanova | |
| Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati | 231 |
| X.A.Madaminov | |
| Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi..... | 234 |
| C.Y.Анварбекова | |
| Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике..... | 238 |
| Д.М.Азимова | |
| Дистанционное образование в обучении иностранному языку: эффективность и критерии | 242 |
| Д.Ф.Керимов | |
| Анкетирование как метод исследования использования IT технологий в образовательном и тренировочном процессе | 247 |
| S.A.Mirzaqobilova | |
| Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 255 |
| J.Q.Mirzajonov | |
| Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati | 260 |
| F.O'.Toshboltaev | |
| Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni | 264 |
| R.D.Mustayev | |
| Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi | 267 |
| S.A.Xayrullayev | |
| Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi | 271 |
| N.M.Aliyev | |
| Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari..... | 275 |
| G.I.Otaboyeva | |
| Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari | 279 |
| N.T.Abdullajonova | |
| Germenevtik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati | 282 |
| Y.H.Teshayeva | |
| Ilmga yo'g'rilgan umr | 286 |
| Sh.B.Sattorova | |
| Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati..... | 290 |
| M.F.O'rmonova | |
| Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida) | 295 |
| S.A.Rahmonberdiyeva | |
| Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari | 298 |
| Sh.G'.Xasanov | |
| Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash..... | 303 |



UO‘K: 378.014.15

**GERMENEVTIK YONDASHUV VA UNING BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING
TARIXIY JARAYON QONUNIYATLARIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI
AHAMIYATI****ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ЗНАНИЙ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ О ЗАКОНАХ ИСТОРИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА****HERMENEUTIC APPROACH AND ITS SIGNIFICANCE IN DEVELOPING KNOWLEDGE
OF FUTURE HISTORY TEACHERS ABOUT THE LAWS OF THE HISTORICAL PROCESS**

Abdullajonova Nigoraxon Turdaliyevna 
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, hermenevtik-kognitiv texnologiyasi, hermenevtik yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirish samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, hermenevtik yondashuv va uning bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье исследуется эффективность развития знаний будущих учителей истории на основе герменевтико-познавательной технологии, герменевтико-познавательной технологии и герменевтического подхода. Также анализируется герменевтический подход и его значение в развитии знаний будущих учителей истории о законах исторического процесса.

Abstract

In this article, the effectiveness of future history teachers' knowledge development based on the hermeneutic-cognitive technology, hermeneutic-cognitive technology, and the hermeneutic approach is studied. Also, the hermeneutic approach and its importance in developing the knowledge of future history teachers about the laws of the historical process are analyzed.

Kalit so‘zlar: tarix, tarixiy jarayon, qonuniyat, komponent, empirik, pedagogik xususiyat, metodologiya, kompetensiya, hermenevtik, kognitiv, texnologiya, tendensiya, texnologik, hermenevtik yondashuv.

Ключевые слова: история, исторический процесс, легитимность, компонент, эмпирический, педагогический признак, методология, компетентность, герменевтический, когнитивный, технологический, тренд, технологический, герменевтический подход.

Key words: history, historical process, legitimacy, component, empirical, pedagogical feature, methodology, competence, hermeneutic, cognitive, technology, trend, technological, hermeneutic approach.

KIRISH

Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda hermenevtik yondashuvni joriy etish ta‘limni rivojlantirishda, subyekt-subyekt munosabatidagi yangi konseptual bosqichini ifodalaydi. Bu yondashuv o‘qituvchining ta‘lim muassasasidagi mavjud hodisalarni o‘zaro bog‘liqligini anglash, sabab-oqibatlarini aniqlash qobiliyatini anglatadi. Pedagogik hermenevtikaning tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, u ta‘lim oluvchini tushunishga, unda mavjud bo‘ladigan “tarixiy anglashilmovchilik” holatini bartaraf etishga, talabalar muhitini insonparvarlashtirishning dolzarb muammolarini hal qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, tarixiy jarayonni anglash, tushunish va tarixiy muloqotni yuzaga keltirishga doir bilimlarni rivojlantirish masalalari J.Anderson, D.Blazar, S.A.Henry, L.N.Aleksashina, V.V.Barabanov, P.A.Baranov, L.S.Baxmutova,

ILMIY AXBOROT

Y.Y.Vyazemskiy, O.Y.Strelava, M.V.Korotkova, M.T.Studenikin, N.N.Lazukova, YE.M.Persanova, O.G'.Davlatov, A.F.Ismailov, Q.R.Shonazarov, B.X.Xodjayev, O.Musurmonova, M.Quronov, S.Nishonova, U.Mahkamov, E.Turdiqulov, R.Safarova, B.Adizov, A.Choriyev, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinovalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Germenevtika” (grekcha hermeneutike) - “o’rganish, sharhlash” degan ma’noni bildiradi. Shuningdek, bu so’z insonga ma’budlarning so’zlarini yetkazib beruvchi Germes nomi bilan ham bog’liq. Qadimgi Yunoniston afsonalarida ma’budlar elchisi Germes odamlarga ilohiy vahiyini yetkazish va tushuntirish majburiyatini olgan. Ayrim manbalarda esa, germenevtika sharhlash va tushuntirish san’ati, ko’p qiymatli belgi, ishoralarni, hamda Gomer va qadimgi mutafakkirlar asarlarini talqin qilish ta’limoti sifatida ham ta’riflanadi. Keyinchalik, qadimiy yodgorliklarni haqiqiy tarjima qilish san’ati sifatida xizmat qila boshladi.

Lug’atlarda tariflanishicha, “germenevtika – keng ma’noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta’limot, tor ma’noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o’rganishda qo’llaniladigan metod va qoidalar to’plami”, deb ta’rif berilgan.

Shu ma’noda, germenevtik yondashuvni tarixan: tarjima (boshqa tildagi ijod mahsulini va tajriba ma’nosini o’z tiliga o’tkazish); rekonstruksiya (haqiqiy ma’noni topish yoki ma’no tug’ilgandagi vaziyatni o’rganish); dialog (subyektning matn bilan muloqotga kirishi va yangi ma’noning yaratilishi), kabi turlari mavjud. Ya’ni, o’zga tilda yozilgan matnni o’z tilimizga tarjima qilganimizda ma’lumotlarni tilimizda mavjud bo’lgan so’zlar bilan izohlaymiz. Agar o’zga tildagi biror bir so’z bizning tilimizga aynan tarjima qilinmasa, shu so’zga ma’no jihatdan yaqinroq bo’lgan so’zni qo’llashimizga to’g’ri keladi. Chunki bir millatning leksik so’z boyligi ikkinchi millat so’z boyligi bilan bir xil bo’lmaydi va oqibatda tarjima jarayonida biz aynan birinchi manbadagi mazmunni beradigan so’z yoki iborani topa olmaymiz. Bu esa, matn ma’nosining o’zgarishiga sabab bo’ladi. Lekin tarjima jarayonida shunday holatlar bo’ladiki, matn tarjimasi birinchi manbadan ham chuqurroq, mazmunliroq chiqishi mumkin. Bu holat tarjimonning yuksak mahorati, so’z boyligi bilan bog’liq. Demak, bir tilning matn ma’nosini boshqa tilga tarjima qilishda tarjimon, avvalo, ikki tilning leksik so’z boyligini chuqur bilishi, ma’nodosh so’zlarning eng muvofiqini tanlay olishi kerak. Undan tashqari, tarjima jarayonida ma’noni kuchaytiruvchi asosiy jihat tarjimonning matndagi narsa va hodisalar mohiyatini tushuna olishi, ularni ichki kechinmalar orqali his qila olish qobiliyatidir. Agar tarjimada shu jihat bo’lmasa, majoziy aytadigan bo’lsak, matnning “shira”si bo’lmasa, u hech qachon o’quvchi (yoki tinglovchi)ga tushunarli bo’lmaydi.

Germenevtik yondashuv rivojidagi rekonstruksiya jarayoni ham haqiqiy ma’noni topishdagi muhim yondashuvlardan biridir. Rekonstruksiya so’zi o’z ma’nosi bilan “qayta tiklash”, ya’ni germenevtikada matnning birinchi ma’nosini qaytadan “jonlantirish” uchun qo’llaniladi. Bu yondashuv tarjima jarayonidan farqli o’laroq, nafaqat ikki va undan ortiq tillar ichida, balki bir til ichida ham qo’llaniladi. Germenevtik rekonstruksiya tarixga, ya’ni so’z (matn)ning yaratilishi bilan bog’liq holatga nisbatan amalga oshiriladi. Masalan, hozirgi kunda kundalik hayotimizda qo’llab kelayotgan biz uchun to’la tushunarli bo’lmagan so’z (termin, atama)larning vujudga kelishi muayyan sababga asoslanganligiga har doim ham e’tibor bermaymiz. Masalan, barchamizga tanish bo’lgan “Chorsu” so’zini olaylik. Kundalik hayotimizda tez-tez qo’llaniladigan mazkur so’zni savdo markaziga nisbatan ishlatamiz. Lekin ushbu so’zning kelib chiqishi o’rta asrlarda shahar markazidagi hududga bog’liq bo’lib, u yerdan to’rt tomonni ko’rish mumkin bo’lgan. Fors tilida “chor” “to’rt”, “su” “taraf” ma’nosini anglatadi. Hayotimizda bu kabi tarixiy atama, so’zlar ko’p uchraydi. Umuman olganda, qo’llanilayotgan har bir so’zning asl mazmunini bilishda shu so’z yaratilgandagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat va shart-sharoitlarni e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Bu holat tafakkurni sababiy aloqadorlikda rivojlanishiga kuchli ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Germenevtik dialog esa, tarixchi talabani matn bilan jonli muloqotga kirishishiga sabab bo’ladi. Ya’ni talaba matn bilan muloqotga kirishib, voqea-hodisalar ishtirokchisiga aylanib boradi. Bu yerda nafaqat tushunish, balki his qilish ustun turadi. Biz qahramonlar taqdiriga sherik bo’lib, ularning shodligidan quvonib, dard-alamidan iztirob cheka boshlaymiz. Bir so’z bilan aytganda, har bir ijod asari aniq g’oya, aniq maqsad bilan yaratilib, mavhumlik – ramz va belgilar bilan

niqoblanadi. Asarning qimmati esa mana shu mavhumlik darajasi, ya'ni ko'p ma'nolilik bilan bog'liq. Talaba dunyoqarashi, tafakkuri, hayot tarzini o'zgartira olgan asarni kuchli asar deya e'tirof etishimiz mumkin. Bunday asarda talabani matn bilan muloqotga kirisha oladigan jihatlarining ko'pligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, aynan muloqot jarayonida haqiqiy ma'no tushuniladi, hayotning mohiyati, yashashning mazmuni ikki tomon (matn va tarixchi) muloqot chegarasining birlashishi bilan anglanadi.

Umuman olganda, germenevtik yondashuvning maqsadi niqoblangan haqiqat mazmunini ochishga yo'naltirilgan. Har qanday ta'limot yoki metod o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Shuningdek, germenevtik yondashuvning ham tarixiy ildizlari, hatto, tarixiy muammolari bor. Matn va matn muallifining birinchi qarashlarini aniqlash va matn ma'nosini sharhlash va qabul qilish dastlabki germenevtikaning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Germenevtik yondashuvning o'tgan asrning oxiridagi rivojiga katta hissa qo'shgan Shleyermaxerning yangiligi "yaxshiroq tushunish" tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, tadqiqotchi matnni o'z ijodiy yondashuvi bilan muallifdan ham ko'ra chuqurroq va kengroq tushunishi mumkin. Mazkur tamoyil zamonaviy tadqiqotchining faqat matnda ifodalangan voqealar mazmunini emas, balki muallif hayoti, tarixiy davri kabilarni bilishi lozimligini talab qiladi. Chindan ham, inson muayyan tarixiy, ilmiy asarni yaratayotganda davrining ruhi, o'zining ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabati, hayotiy kayfiyatini anglanmagan holatda matnga singdiradi. Matnni o'rganuvchi tadqiqotchi esa, mazmunni izohlashga oqilona, ongli yondashadi va natijada muallif nazarda tutmagan narsa-hodisalarning yangi ma'nolarini kashf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu taxlitda tadqiqotchi muallifdan yaxshiroq tushunishi mumkin.

Shleyermaxerning mazkur yondashuvi o'tgan asrda gumanitar fanlar metodologiyasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Sent-Biyov biografik metodiga muvofiq keladi. Ushbu metod tarixiylik asosiga qurilgan bo'lib, bunda matn muallifi hayoti haqida ma'lumotga ega bo'lmay turib, matndan mazmun qidirish samarasiz usul hisoblanadi. Shleyermaxerning narsa-hodisalarning antropologik nuqtai nazardan, mualliflarning biografik jihatdan tahlil qilishi germenevtikaning keyingi rivojiga ijobiy ta'sir qilgan. Bundan tashqari, mutafakkirning matn ma'nosini o'rganishda rekonstruksiya metodining qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, germenevt izlanishining maqsadi matn muallifi ichki dunyosiga kirib, u bilan birga iztiroblarni his qilishi bilan amalga oshadi. Umuman olganda, F.Shleyermaxer ijodi germenevtik yondashuvning keyingi rivojiga katta hissa qo'shdi.

Germenevtik yondashuvni aniq ilmiy metodologik konsepsiyadan umumilmiy ta'limotga aylanishida V.Diltey ijodining o'ziga xos o'rne bor. Diltey o'z qarashlarida Shleyermaxer an'analarni davom ettirib, interpretatsiya va tushunish masalasini tadqiq etishga o'ziga xos yondashadi. U tushunish predmetini uch turga - insonning ichki dunyosi, tashqi dunyo va o'tmish madaniyatiga bo'ladi. Olimning fikricha, ichki dunyoni tushunishda introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish orqali bilish) metodidan foydalanish samarali natija beradi. Tashqi dunyoni tushunish esa, obyektiv olamni anglashdek kechadi. O'tmish madaniyatini tushunishda esa, faqat germenevtik metodologiyadan foydalanish mumkin. Tarix – yaxlit holda ma'noga ega emas, uning misolida faqatgina muayyan davrlarga tegishli o'zida yopiq "madaniy tizim"larni jam etgan individual qurilmalarni ko'rish mumkin. Insoniylikning yaxlit mohiyati tabiiy-tarixiy-ijtimoiy aloqalarda namoyon bo'ladi.

Nemis olimi M.Xaydeggerning germenevtik yondashuv rivojidagi o'rne beqiyos hisoblanadi. Uning fikricha, til – faqat muloqot almashish quroli emas, balki insoniy borliqning, hayot mazmunining namoyon bo'lish shartidir. Biroq shu bilan birga, "...til mazmunni nafaqat aniqlashtiradi, balki mavhumlashtiradi ham. Mazmunni izohlash uchun mukammal til kerak. Lekin har bir so'zlovchi o'z ongi, tasavvuri, dunyoqarishi chegarasidan o'tib ma'noni izohlay olmaydi. Ayni paytda til – inson uchun, nafaqat tashqi borliqning ifodalovchisi, balki o'z borlig'ini ham ifodalovchi vositadir.

Zamonaviy tarixiy tadqiqotlarda germenevtik yondashuv rivoji va mustahkam asoslari nemis faylasufi X.G.Gadamer ilmiy-ijodiy faoliyati bilan bog'liq. U o'zining "Haqiqat va metod" asari bilan germenevtikaning tarixni chuqur o'rganishga qaratilgan ta'limot sifatida rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Zero, tushunish, Gadamer fikricha, - biluvchi, faoliyat yurituvchi va baholovchi insonning

ILMIY AXBOROT

mavjud bo'lish sharti. Tushunish – bu nafaqat bilish, balki dunyoni o'zlashtirish (tajriba)ning universal yo'li, u sharhlovchining o'z-o'zini tushunishi va mazmunni qidirish jarayonidir.

XULOSA

Germenevtik yondashuv matn talqinida retsiyentga yordam beruvchi asosiy holatlarni esa quyidagicha qayd etish mumkin; matn to'g'risida xabardorlik; matn mantiqiga moslashish, lozim bo'lsa, unga o'z taqdirini bog'lash; matn savol berganda, retsiyentning unga javob berishga moyilligi (tayyorlik holati); kontekst (voqea, madaniyat) ortidagi ichki mazmunni ko'rishga intilish. Yuqoridagi holatlar talabalarni tarixiy matnning yaxlit mazmunini topishga va tahlil qilishga yo'naltiradi. Tarixiy manbaada ifodalangan har qanday belgi o'zida muayyan axborot, ma'lumotni namoyon qilsada, ularning barchasi bilim bo'la olmaydi. Zero, bilimning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, o'quvchining tafakkur doirasiga yangilik olib kirishidadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гадамер Х.Г. Истина и метод. Основы философской герменевтики –Москва.: Прогресс, 2011.
2. Герменевтика и деконструкция / Под ред. Штегмайера В., Франка Х., Маркова Б. -СПб.: Питер, 2009.
3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. -Тошкент: Маънавият, 2008. –Б.220-229
4. История философии. Кохановский В.П., Яковлев В.П. –Ростов на Дону: Феникс, 2007. –С. 412
5. Павлов Е.В. Основы герменевтики. -Москва.: Московский богословский институт, 2014. -С.4
6. Рикер П. Герменевтика и метод социальных наук // От текста к действию. Очерки по герменевтике-II. – М.: Наука, 2004. – С. 181.
7. Фалсафа қомусий луғат. / Назаров Қ. таҳрири остида. –Тошкент: Шарқ НМАК, 2004. –Б.88
8. Хайдеггер М. Бытие и время. Статьи и выступления. -Москва.: Республика, 2003. -С. 268